

## O'ZBEKISTONDA ASALARICHILIK ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

Ubaydullayeva Shohista Hidoyatilla qizi

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti**

**O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini yo'nalishi talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10154383>

**Annotatsiya:** Asalari yetishtirish bu yeti xazinadan birini yetishtirish demakdir. oziqaviy, tibbiy va serdaromad manba sifatida foydali tomonlari ko'p sanaladi. Asalarichilk tarmog'ini kengaytirish uchun katta ishlab chiqarishga ega fermer xo'jaligiga aylantirish zarur va aniq yechimga qaratilgan biznes reja zarur. Biznes rejada asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasи, asalarilarni oziqlantirish, parvarish qilish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlarni aniq hisob-kitob qilish bilan birga, ishlab chiqarilgan mahsulotning qanday narxda va qaysi bozorda (ichki yoki tashqi) sotilishini bilish lozim. Mavjud muammolarga yechim sifatida o'z yechimini topish maqsadida davlat va tarmoq hamkorligini faol yo'lga qo'yish va har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi zarur.

**Kalit so'zlar:** Asarichilik, changlanish, yillik reja, seleksiya.

### Kirish

Asalarilarning foydali va serdaromad tomonlari shundaki, ular o'simlik gullarini chetdan changlatish yo'li bilan ekinlar hosildorligini 10-60 % gacha oshirishga sabab bo'ladi. Hamda oziqa sifatida tabiat inomi asal va uni orqasidan aholining daromadga ega bo'lishi muhimdir. Respublikamiz sharoitida esa g'o'za, beda va dukkakli o'simliklar, ozuqabop hamda poliz ekinlari maydonlari kengayib borishi tufayli, qishloq xo'jalik ekinlarini changlatishda asalarilarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Asalarilarning ana shunday beminnat xizmatlarini va u dehqonlarning qanotli yordamchisi ekanligini hisobga olib, hukumatimiz keyinigi yillarda asalarichilikni respublikada yanada rivojantirish to'g'risida ko'pgina qarorlar qabul qildi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16 oktyabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi – 3327 sonli qarori qabul qilindi. Bu qaror yordamida respublikamizda asalarichilik bir muncha rivojlandi, uning moddiy-texnika ta'minoti, kadrlar bilan ta'minlash ishlari mustahkamlandi. Respublikamizda sotsial va iqtisodiy rivojlantirishning 2026 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida ham asalarichilikni jadal usulda rivojlantirish mo'ljallangan. Mamlakat oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda ham asalarichilik katta ahamiyatga egadir. Butun dunyoda asalarichilik fermerlik jamiyatlariga bir qancha beباho foyda keltiradi. U ekinlarni changlatish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlaydi va shu bilan changlatuvchiga bog'liq hosildorlikni oshiradi. 2009–2022- yillarda asalarichilik subyektlarining 21937 taga ko'payib, ya'ni 38 foizga o'sishi, shu bilan birga, asalari oilalari 96499 taga ko'payib, ya'ni 71 foizga o'sishi natijasida asal ishlab chiqarishda ham salmoqli natijalarga erishilgani kuzatilgan. 2020- yilda 2329,4 tonna asal, 2010- yilda 3171,9 tonna asal, 2020- yilda 11786,1 tonna asal ishlab chiqarilgan bo'lib, 2011- yilda 2009- yilga nisbatan 7456,7 tonna asal ko'p ishlab chiqarilgan, ya'ni 2011- yilda 2009- yilga nisbatan asal ishlab chiqarish 62,5 foizga oshgan. 2000–2001- yillarda «O'zbek-asal» uyushmasi tasarrufdagи xo'jaliklarda 160 mingdan ziyod asalari oilasi mavjud bo'lgan. Asalarichilik xo'jaliklari o'rнida fermer xo'jaliklari tashkil etilishi munosabati bilan ularning soni teng yarmiga kamayib ketgan. Asalari oilasini boqish texnologiyasini bilmaslik, asalarichilik jihozlarining noyobligi, asalari oilasini ko'chirish xarajatlari, yonilg'i-moylash

mahsulotlarining qimmatligi, asalarichilar bilan yer egalari o'rtasidagi tushunmovchiliklar, yetishtirilgan asalni sotishdagi ovoragarchiliklar (hozirgi kunda ayrim asalarichilar uyida 20–25 tonnagacha 10–15 yillik asal to'planib qolgan), asalari oilasini ko'paytirish va asalari kasalliklariga qarshi kurash maqsadida beriladigan har xil faol preparatlar va dori-darmonlarning taqchilligi asalari oilasining kamayishiga olib keldi. Respublikamiz florasiidagi 85–90 % yovvoyi va madaniy o'simliklar faqatgina asalarilar yordamida changlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tabiatning bir bo'lagini kelajak avlod uchun saqlab qolishga, atmosferani kislorod bilan boyitishga, ekologiyani yaxshilashga hamda inson salomatligini mustahkamlashda zarur va noyob bo'lgan tibbiyot mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek, xalqimiz dasturxonini qimmatbaho asal bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

**Asalarichilik fermer xo'jaliklarining biznes rejasini tuzish** Biznes rejaning muvaffaqiyatlari bajarilishini ta'minlaydigan muhim shart-sharoitlardan biri uning ijrosini tekshirishdir. Reja o'z-o'zidan amalga oshavermaydi. Xo'jalikning istiqbolli va joriy rejalarini amalga oshirish uchun oqilona ish yuritish lozim. Rejalahtirish uni tuzishdangina iborat deb o'ylash noto'g'ri. Aslida esa, rejani tuzish rejalahtirishning boshlanishidir. Asosiy rejani boshqarish esa reja tuzib bo'linganidan keyingina joylarda bu rejaning qanday bajarilayotganligini nazorat qilish, ishlab chiqarishdauning qanday amalga oshirilayotganligini tekshirib borish, unga ayrim tuzatishlar kiritish, ishlab chiqarishning reja tuzilgan yilga xos bo'lgan sharoitlarini hisobga olish jarayonida olib boriladi. Biznes rejada ko'rsatilgan ishlarning bajarilishini tekshirib borish tashkiliy ishlar bilan bog'liq. Rejani amalga oshirish ishidagi barcha qiyinchiliklarni bartaraf etishda bo'limlarga, fermalarga va xo'jalikka yordam ana shu tashkiliy ishlarning bir qismidir. Qabul qilingan rejalarining bajarilishini nazorat qilib borish ishiga xo'jalikdagi barcha mutaxassislarni jalgan etish kerak. Xo'jalikda reja qanday bajarilayotganligini kun sayin nazorat qilib borish, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Shunday qilingandagina kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, ishda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni xo'jalik yili yakunlanayotgan paytda emas, balki ish jarayonida tuzatish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, xo'jalik rejalarining bajarilishi bilan xo'jalikdagi foydalanimayotgan imkoniyatlar ishga solinadi, asbob-uskunalar va material pul vositalaridan to'laroq foydalaniлади, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi manbalarini izlab topish, mehnat unumдорлигини oshirish, moddiy sarflarning tejamli yo'lini topish imkoniyati vujudga keladi. Bozor iqtisodi sharoitida har bir mahsulot yoki xizmatning xaridorgirligini oshirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati va bozor talabidan kelib chiqib tuzilgan biznes reja ishni tashkil qilishning asosiy hujjati hisoblanadi. Qishloq xo'jalingining barcha sohalari, shuningdek, asalarichilik sohasi ham iqtisodiy rejalarsiz hech qanday rivojlanish xususiyatiga ega emas. Kelajak rejalar mehnatni ilmiy asosda tashkillashtirishni ko'zda tutgan holda, shu sohani ixtisoslashtirish, konsentratsiyalashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Rejalar 3 xil bo'ladi, ya'ni rivojlanish, tashkillashtirish, kelajak rejasidir. Bu rejalar 5 yoki 7 yilga tuziladi. **Yillik rejalar.** Yillik rejalar xo'jalikning ishlab chiqarish moliya rejalarini o'z ichiga olib, har bitta bo'lim, brigada, zvenolar va asal-arichilik fermer xo'jaliklari bo'yicha tuziladi. Yillik rejalar, kelajak rejalarining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Yillik rejalarini tuzishda asalarichilikning oxirgi 3–5 yillik ko'rsatkichlari o'rganib chiqilib, ularning natijalariga qarab tuziladi. Asalarichilikdagi hisob-kitob ishlari quyidagicha amalga oshiriladi. Xo'jalikdagi quyidagi ko'rsatkichlar o'rganiladi:

- 1) asalari oilalari soni;
- 2) umumiy asal miqdori;

- 3) yangi oilalar soni;
- 4) mum;
- 5) ona suti;
- 6) sotilgan mahsulotlar, so'm;
- 7) qilingan xarajatlar;
- 8) bir birlik mahsulotning tannarxi, so'm;
- 9) asalarichilikdan kelgan foyda, so'm;
- 10) samaradorlik darajasi, %.

Asalarichilikda yetishtirilgan mahsulotlarini ma'lum bir birlikka, asosan, asal birligiga aylantiriladi. Agar asalarilar xo'jalikda changlashtirish ishlarida qatnashgan bo'lsa, qilingan xarajatlarning 30 % i o'simliklar hisobiga o'tkaziladi. Asalarichilik xo'jaligida biznes reja, asosan, quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: umumiylab chiqarish rejasi, marketing rejasi, tashkiliy rejasi, moliyaviy rejasi. Mahsulotlarni sotishdan tushgan pul daromadini hisoblashda ularga belgilangan

davlat buyurtmalari alohida hisob-kitob qilinib, shartnomada asosida sotiladigan qismiga qo'shiladi va o'rtacha narx chiqariladi. Har bir mahsulot uchun foydalilik darajasiga 25–30 foizdan qo'shib, sotiladigan mahsulot miqdoriga ko'paytiriladi. Sotiladigan mahsulotning tannarxi va sotishdan tushgan pul mablag'lari o'rtasidagi farq hisoblanadi va u mahsulot turlarini sotishdan olingan moliyaviy natija sifatida qayd etiladi. Respublikamizda 238 607 ta asalari oilasi bo'lib, bu ekilayotgan bir million gektardan ortiq g'o'za maydonlarini, 540 ming hektar bedazor, 482 ming hektar bog', poliz, sabzavotni, 387 ming hektar makkajo'xori va boshqa ekinlar gulini changlatishga yetmaydi. Ana shu maydondagi ekinlar gulini changlatish uchun qo'shimcharavishda yana 1,5–2 millionta asalari onasi tashkil etiladi.

### **Asalarichilik tarmog'idagi muammolar:**

Asalarichilik fermer xo'jaliklariga chorva ozuqa ekinlari urug'i yetishtirish va asalarilar ozuqa bazasini boyitish maqsadida yer maydonlari ajratish;

- Asalarichilikda mahalliy noyob asalari populyatsiya genofondini sof holda saqlab qolish, ko'paytirish, tanlash, seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida asalarichilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklari negizida naslchilik-asalarichilik fermer xo'jaligi tashkil etish;
- Qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarga qarshi kimyoviy preparatlarni qo'llashda belgilangan xavfsizlik choralariga rioya qilish va oldindan xabardor qilish;
- Asalarichilik bilan shug'ullanayotgan shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar ajratish va investitsiyalar kiritish;
- Viloyatlar markazida xususiy tadbirkorlar negizida asalarichilik jihozlari (ari kutisi, ramkalar, gul changi ushlagich, ona ari qafaschasi, tutatgich, asalarichi pichog'i, asalarichi iskanasi, kurakcha, yuz niqob va boshqalar) ishlab chiqish;
- Asalarichilikni ilmiy salohiyatini yanada oshirish, jahondagi asalarichilik bilan shug'ulanayotgan ilmiy dargohlar bilan hamkorlik qilish;
- Asalarichilikka oid me'yoriy texnik xujjatlarni takomillashtirish;
- Viloyatlarda bittadan asalarichilik maxsulotlarini qayta ishlaydigan, qadoqlaydigan mini sexlar o'rnatish;
- Chetdan asalarichilik jihozlari va asalari zotlari olib kirishda maxsulotlarning kodlarini, bojxonalarini to'lovlarini va soliqlar masalasini ko'rib chiqish;

- Asalarichilik uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar bilan ta'minlash hamda xo'jaliklarda zooveterinariya servis xizmat ko'rsatishni yaxshilash.

### Xulosa va takliflar

Aholi sonining oshishi va ishsizlik darajasining oshishi mavjud imkoniyatlarni keng miqdorda joriy etishni talab etmoqda. Muhim imkoniyatlari tarmoqlaridan biri –asalarichilikdir. Asalning dunyo bozoridagi tannarxi ancha yuqori va serdaromadli va resursbop yo'nalişdir. Asalarilarning changlatish xizmatlari butun dunyo bo'ylab yiliga 215 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, Asalarichilik millionlab odamlar uchun tirikchilik manbai hisoblanadi. Asalarichilik dehqonlarning zarbala gosh berishda kredit cheklovlarini yumshatib, ularning turmush tarzini yanada mustahkam qilishi mumkin. Asalarichilikdan olinadigan daromad ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashi, bolalarining maktab o'qishi uchun haq to'lashi va iste'molini yumshatishi mumkin. Yana bir foyda shundaki, asalarichilik biologik xilma-xillikni saqlashga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, asalarichilar o'rmonlarni muhofaza qilishni qo'llab-quvvatlashlari mumkin, chunki o'rmonlar asalarilar uchun asosiy em-xashak manbalaridir, ayni paytda shifobaxsh va shifobaxsh xususiyatlari. asalarichilik mahsulotlari fermerlarning ovqatlanishi va oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo'shadi. Nihoyat, asalarichilik ayollar va yoshlarni kuchaytirishi mumkin, chunki u mehnat va suv kabi minimal resurslarni talab qiladi. Shu maqsadda uchrayotgan tarmoq muammolariga yechim topishga kirishish va faoliyat bilan shug'ullanayotganlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yib har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur.

### References:

- Karimov I.A. "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. T. 2006 23- mart
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03/1-348-sonli "Respublikada 2009-2011-yillar asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora - tadbirlar" dasturi.T.2009- yil 23- mart
- Kraxotin N.F. "O'zbekistonda asalarichilik" T.Mehnat, 1985.
- Alisherovich, M. A., & Olimjon o'g'li, C. J. (2023). FUTURE BUILDING MATERIAL: BIO CONCRETE SELF-HEALTHING. Journal of Universal Science Research, 1(4), 6-15.
- Nowak, D. J. & Greenfield, E. J. Declining urban and community tree cover in the United States. Urban For. Urban Green 32, 32-55 (2018).
- Musurmonov Abror Alisherovich, Choriyev Jahongir Olimjon o'g'li, Sherpo'latova Shohsanam Panji qizi, & Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi. (2023). PROBLEMS AND PROSPECTS FOR GROWING TOMATOES IN DIFFERENT SALT. World Scientific Research Journal, 13(1), 27-34. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2570>
- Isamuhamedov A.I. - "Asalarichilik" T.O'qituvchi, 1995.
- Musurmonov Abror Alisherovich , Choriyev Jahongir Olimjon o'g'li, & Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi. (2023). THE EFFECT OF FOOD STRUCTURE ON MICROBIAL ACTIVITY. IQRO JURNALI, 2(1), 565-572. Retrieved from <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/364>
- Musurmonov Abror Alisherovich, Choriyev Jahongir Olimjon o'g'li, & To'xtayeva Surayyo

Sobir qizi. (2022). KOMPLEX EVALUATION OF DIFFERENT FERTILIZATION SYSTEMS IN THE CULTIVATION OF VEGETABLES ON DIFFERENT FIELD SOILS. European Journal of Agricultural and Rural Education, 3(3), 22-25. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejare/article/view/1996>

9. Alisherovich, M. A., & Ogli, C. J. O. (2023). GIDROMORF TUPROQLARNING O'ZLASHTIRISHDA MOYLI O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISHNING AHAMIYATI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(6), 9- 12.

10. Musurmonov, AA, Absalomova, KA, Temirova, MT, & Rahmatov, AH (2021). LİMONNING TIBBIY VA IQTISODIYOT FOYDALARI. Iqtisodiyot va jamiyat, (5-1), 341-344.

11. Alisherovich, M. A., & Olimjon o'g'li, C. J. (2023). IN THE DEVELOPMENT OF HYDROMORPHIC SOILS THE IMPORTANTCE OF GROWING OILY PLANTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 17(3), 134-137.

